

BURHONIDDIN MAHMUD BUXORIYNING “ZAXIRA” ASARIDA SHERIKCHILIK MASALALARINING YORITILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15653404>

Xushvaktov Yusuf Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Ijtimoiy Fanlar va Huquq” kafedrası doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada faqih Burhonuddin Mahmud Buxoriyning “Zaxira” asarida sherikchilik va unga oid masalalar yoritilishi haqida bahs yuritilgan. Shuningdek maqolaning asosiy qismida sherikchilikning turlari haqida malumotlat keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar

Sherikchilik, inon shirkati, sherikchilikni buzish qoidalari, shirkatul vujud, sherikchilikda foyda taqsimoti.

KIRISH

Islom dini insonlarni iqtisodiy munosabatlariga alohida etibor qaratgan. Xususan, Qur'oni karimda hamda sunna nabaviyda odamlarni sanoat va tijorat Kasb-kamolatga mas'uliyat bilan yondoshishlik. Inson o'zining kasb-kamolatiga omonotdor bo'lishligi zarur. Tijorat misolida olsak, tijoratchilik insondagi bir ne'matdir. Tijoratchi insonlar bilan bo'lgan munosabatda shiori to'g'riso'z bo'lishdir.

ASOSIY QISM

Ko Shirkat bu arabcha الشركة dan olingan. Lug'atda, الشركة so'zi aralashish, sherik bo'lish va qo'shilish degan ma'nolarni ifodalaydi. Ash-shirkat va ash-sharikat ikki narsaning bir-biriga aralashishligiga aytiladi..

Fiqhiy istilohda, kamida ikki kishi sarmoya va foydada bir-birlari bilan sherik bo'lishga qaror qilishlariga shirkat deyiladi. Hanbaliy mazhabi faqihlaridan alloma ibn Qudoma shirkatga shunday ta'rif berganlar: “Shirkat – haqni talab qilish yoki tasarruf qilishda (bir kishidan ziyoda kishilarning jam bo'lib) sherik bo'lishlaridir”.⁶⁸

Shirkat shariatning uch asosiy manbai, ya'ni Qur'oni karim, hadisi sharif va ummat ijmosi bilan sobit bo'lgan. Shirkat ishlarida tomonlar bir-birlarining mollariga xiyonat qilmay, omonat va diyonat yuzasidan ish ko'rsalar, ularga Alloh

⁶⁸ Shamsiddin Abufarj Abdurruahmon. Sharhul kabir ala matnil muqni. – Bayrut: Dorul kutub arabiy. – J. 5. –B.109.

taoloning madadi va ko'magi bo'ladi. Agar bordi-yu, sheriklar bir-birlarini aldab, xiyonat qilsalar, Alloh taoloning madadi ularning orasidan ko'tarilib ketadi.

Shirkatning ba'zi navlari xususida mazhablar orasida turli fikrlar mavjud bo'lishiga qaramay barcha ulamolar shirkatni ummat umumiy tarzda joizligiga ittifoq qilgan. Shirkatning joizligi borasida birorta ilm egasi qarshi chiqqan emas.

Islom fiqhida sheriklik bir necha tur bo'lib, quyida ular bilan tanishib o'tamiz. Sheriklik mulkiy va shartnomaviy sheriklikga bo'linadi. Shartnomaviy sheriklikning o'zi ham bir necha turga bo'linadi: sarmoyaviy sherikchiligi, mehnat sherikchiligi va zimmadorlik sherikliklariga bo'linadi. Chunki bu sherikliklarda ko'rilgan zararda sheriklarni hissasini belgilash sheriklik mablag', mehnat va zominlik asosida belgilanadi. Sheriklikda ko'rilgan zarar sheriklarning o'rtadagi mablag'i asosida belgilansa, unga شركة الاموال deyiladi. Sheriklikda ko'rilgan zarar sheriklarning mehnati asosida belgilansa, unga شركة الأعمال deyiladi. Sheriklikda ko'rilgan zarar sheriklarni zominligi asosida belgilansa, unga شركة الوجوه deyiladi⁶⁹.

bu شركة الاموال ikki yoki undan ortiq kishilarni o'zlarini sarmoyasi bilan tijorat qilishga kelishilgan bitimidir. Bularni sarmoya, foyda va ziyonlari aniq nisbatda bo'ladi. O'rtaga qo'yilayotgan sarmoyaviy mol kelishuv vaqtida yoki sheriklikga mol sotib olish vaqtida keltirilishi kerak. Ba'zi mazhablarda foyda mol miqdoriga qarab taqsim qilinadi. Yana boshqa mazhablar esa, foydani sheriklarning amaldagi tafovutiga qarab kelishilgan asosda taqsim qilishni aytadi. Sheriklar foydani yarim, uchdan bir yoki to'rtidan bir kabi foiz hisobida belgilashlari vojibdir.

Sheriklardan birortasi sheriklik faoliyatdan foydani muayyan miqdorda belgilab olishi joiz emas. Chunki bunday holatda ba'zan belgilangan muayyan foyda umumiy foydani tashkil etib va qolgan sheriklarga ulush yetmay qolishi mumkin. Natijada sheriklar o'rtasidagi asos bo'lgan adolatga putur yetadi. Foydaning ikki mingidan birini olishni shart qilish, ikki kiyimdan birini olmoqni shart qilish, ikki safarning biridan tushgan foydani olishni shart qilish, ikki makonning biridan yoki ikki zamonning biridan tushgan foydani olishni shart qilish kabilar joiz bo'lmaydi. Zarar ham mol miqdoriga qarab taqsimlanadi. Boshqa turli nisbatlar bilan zararni taqsim qilish to'g'ri bo'lmaydi. Ushbu taqsimotning umumiy xulosasi quyidagi qoidada o'z aksini topgan: Foyda kelishuvga ko'ra, ziyon sarmoyaga ko'ra belgilanadi. Bu sheriklik savdoning barcha turlarida yoki muayyan bir savdo turida bo'lishi ham mumkin. Ushbu sheriklik bitimi, aynan tijoratni anglatadigan lafzlar bilan bo'lishi shart emas. Boshqa lafzlar yoki sheriklikni anglatadigan urfiy holatlar bilan ham bog'lanadi.

⁶⁹ Alloma Muhammad Amin ibn Umar ibn Abdulaziz Obidin ad-Damashqiy. Radd al-muhtor ala ad-durr al-muxtor. – Bayrut: Dor ihya at-tiros al-arabiy, 1998. – J. 3. – B. 359.

شركة الاعمال - sheriklar buyurtma olib, uni bajarib berishda o'zaro hamkorlik qilmoqligidir⁷⁰. Bunday sheriklik turli xil kasb egalari orasida ham bo'lishi mumkin. Hozirgi zamonamiz uysozlari ham turli xil muayyan bir kasb mutxassisi bo'lib, ular uylarni barpo etishda bitta jamoa bo'lib faoliyat olib borishmoqda. Ularning orasida g'isht teruvchi, tom yopuvchi, bo'yoqchi usta va boshqa ustalar mavjud. Bular o'zlaridan birini birgadir etib buyurtmachi bilan sharnoma tuzadi. Shundan so'ng barcha birgada a'zolari o'z hunari bo'yicha faoliyatini olib borishadi va buyurtmadan tushgan foydani o'zaro tuzilgan shartnoma asosida bo'lishib olishadi.

Imom Zufar bunday har xil kasb egalari o'rtasida sheriklik bo'lishligini inkor etadi. O'zi bajara olmaydigan buyurtmani olishligi mumkin emas. Chunki bu holatda ko'zlangan o'zaro hamkorlik topilmaydi. Boisi, buyurtma olayotgan o'zi bajara olmaydi. Hanafiy mazhabi ulamolari imom Zufarning fikriga javoban bu o'rinda sheriklikdagi foyda vakil qilish orqali hosil bo'ladi. Buyurtmani qabul qilib olishliklari uchun aynan o'zi bajarib berishligi shart emas ekanligini keltirgan. Shu sababdan bunday o'zaro bir-biriga manfaat yetkazish maqsadida tuzilgan shartnoma joiz hisoblanadi. Bu sheriklikdagi hamkorlar olinadigan foydani o'z mehnatlari asosida bo'lishadi. Bunday sheriklar buyurtmani bajarib berishda va undagi muommolarda barobar javobgar bo'lishadi.

Bir turdagi sheriklikda hamkorlardan biri buyurtmaga talofat yetkazsa, ikkala hamkor javobgar bo'ladi. Ba'zan esa sartaroshxona egasi o'zi ishlab turgan xonadagi bo'sh turgan joyni boshqa sartaroshga berib, undan tushgan daromadni ikkalasi kelishuv asosida olingan daromaddan foiz orqali bo'lishi mumkin. Sartaroshxona egasi foydaga bergan joy evaziga haqli bo'ladi. Sartarosh esa foydaga mehnati tufayli haqli bo'ladi. Bu sheriklik umumiy sheriklik bo'ladi. Olinadigan foyda ham ma'lum nisbatda bo'ladi. Bunda ikkita tikuvchining sherik bo'lishligi yoki quruvchilar brigadasi kabi har xil kasb egalari bo'lishi mumkin.

Ushbu sheriklik kelushuvi buyurtma olishdan oldin bo'lish kerak. Shunda hammasi o'z ulishiga ega bo'ladi. Bu o'rinda topilgan daromadni taqsimlashda e'tiborga olinadigan jihat o'zaro bo'lgan kelishuvdir. Masalan, uch kishi sherik bo'lsa, ular har biri foydaning $\frac{1}{3}$ ga ega bo'lishadi. Agar ular birorta buyurtma olishsa va ulardan bittasi olgan buyurtmani bajarib bersa, u o'zining hissasi ($\frac{1}{3}$) ga ega bo'ladi. U buyurtmaning hammasini o'zi bajarishi bilan buyurtmaga berilgan ish haqining barchasiga egalik qilolmaydi. Uning buyurtmani o'zi bajarishi tabarru' hisoblanadi⁷¹.

⁷⁰ Shayx Nizom va jamaatun min ulamail hind. Fatvo hindiya fi mazhab al-Imom al-A'zam. – Damashq: Dorul al-fikr, 1991. – J. 2. – B. 331.

⁷¹ Abulhasan al-Quduriy. Muxtasar al-Quduriy sharhi mu'tasar az-zaruriy. – Istanbul: Al-bushro, 2020. – B. 428.

Sheriklar buyurtma olishlik huquqiga teng ega bo'lishi va ularning orasida vakolat yuzaga kelishi kerak. Olinayotgan buyurtmani barcha sheriklar nomidan olinishi zarur. Shunda olingan buyurtma sheriklari nomidan olingan bo'ladi. Sheriklardan biri ikkinchisini buyurtma olishlik huquqidan man qilmaslik shartdir. Bu kabi sheriklikda bittasini buyurtma olishga, ikkitasini mehnat qilishga tayinlash bo'lmaydi. Agar ular o'zaro kelishib shunday qilsa ham baribir ikkalasining ham buyurtmani olish huquqi bo'ladi. Shu sababdan ham ikkalasining zimmasiga buyurtmani bajarib berishlik majburiyati yuklanadi. Hanafiy mazhabidagi hukm ham aynan shunday. Hanbaliylar ham bu sheriklikni joiz deyishadi.

Bunga qo'shimcha tarzda mubohotlardagi sheriklikni joiz deyishadi⁷². Hanafiy mazhabi ulamolari shirkat abdonni ikki turga ajratadi: sheriklikni muayyan bir mehnat turidan olingan foydani o'zaro bo'lish asosida tuziladigan sheriklik. Bu sheriklikga "belgilangan sheriklik" deyiladi. Sheriklikni biron bir mehnat turi bilan belgilamay barcha kasblardan topilgan foydani o'zaro bo'lish asosida tuzilgan sheriklik. Bu sheriklikga esa "umumiy sheriklik" deyiladi⁷³.

Mehnat sherikchiligiga nazar soladigan bo'lsak, bunda asosiy e'tibor insonning mehnatiga qaratilmoqda. Xoh u kim mehnat qilishligini kelishib olishda bo'lsin, xoh foydani belgilashda bo'lsin, asosiy urg'u kasbiy mehnatga qaratilmoqda. Ushbu o'rinlarda insonlarning kasb qilib olgan mehnat faoliyatlari turli xildir. Shu sababdan insonlar o'zlariga kasb qilib olgan mehnatlarni barchasida sheriklik tuzib bo'lmaydi. Bu kasblar orasida barcha manbalarda birdek e'tirof etilgan kasblar va insoniyat va jamiyatga zarar yetkazadigan kasblar ham bor. Musulmon shaxs barcha e'tirof etgan, xususan, islom dini man qilmagan kasblarda sheriklik bitimini tuzish mumkin. Mehnat sherikligi borasida ulamolar ijara qilish mumkin bo'lgan kasbiy mehnatlarda sheriklik bitimini tuzish mumkin deyishgan.

شركة الوجه Bunda ikki yoki undan ortiq shaxs sarmoyasiz nasiyaga olib, naqd hamda nasiyaga sotish asosida sherik bo'ladi. Sheriklarni nasiyaga sotib olishi insonlar oldidagi ularning hurmati va obro'-e'tibori sababidan bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu sheriklik شركة الوجه deyilgan. Ular savdodan olinadigan daromadni zimmasidagi javobgarlik asosida belgilashadi. Boshqa mazhab ulomolari esa foydani kelishilgan shart asosida belgilashni joiz deyishgan. Chunki bu ham shirkat abdonga o'xshaydi va yana sheriklarni obro'-e'tibori, ularni tajribasi va mahorati ham turlicha bo'ladi. Bu sheriklikdagi foyda sheriklikga olingan moldagi sheriklarni javobgarligi asosida belgilanadi. Ba'zan esa topilgan foydani kelishuv asosida ham belgilash mumkin. Chunki bu sheriklikdagi foydaga

⁷² Abdulloh ibn Ahmad ibn Qudoma al-Maqdisiy. Al-Mug'niy fi fiqh al-imom Ahmad ibn Hanbal. – Bayrut: Dor al-fikr. – J. 5. – B. 119.

⁷³ Doktor Rafiq Yunus al-Misriy. Fiqh al-muomalot al-maliyya. – Damashq: Dor al-qalam. 2005. – J. 1. – B. 516.

sheriklikdagi qilgan mehnati yoki sheriklikga olingan molga javobgarlik asosida haqli bo'lish mumkin.

Mubohotdagi sheriklik deb kishilarning suv, o't-o'lan va olovdagi umumiy sherikliklariga aytiladi. Barcha insonlar foydalanishi mumkin bo'lgan suvga anhor, daryo, dengiz, buloqlar va quduqlar kabi hech kimga mulk bo'lmagan suvlar kiradi. O't-o'landagi sheriklikdan murod ham hech kim egalik qilmaydigan umumiy yerlardagi o'tin, o't-o'lan kabilardir. Kishilarning olovdagi sherikchiligiga ommaviy o'rmonlardagi daraxtlar kiradi. Bularga qo'shimcha muboh sheriklikka yer osti boyliklari, yo'llar, masjidlar kabi ommaviy mulklar ham kiradi.

Mulkiy yoki ijtimoiy sheriklik deb ikki yoki undan ortiq kishining egalik sababidan bir-biri bilan aynan bir narsaga yoki qarzgaga egalik qilishiga aytiladi. Oldi-sotdi, hadya qilish, vasiyat qilish va meros kabilar shular jumlasidandir. Ushbu sheriklik mollarning qanchasi kimga tegishli ekanini ajratish qiyin bo'lgan muomaladan iboratdir⁷⁴.

Sheriklikni tanlash yoki tanlay olmaslik e'tiboriga ko'ra ixtiyoriy va majburiy sheriklikka bo'linadi. Ixtiyoriy sheriklik o'z-o'zidan sheriklarni ixtiyori bilan amalga oshiriladi. Bunday sheriklik sheriklik bitimi bilan yoki sheriklik bitimisiz bo'lishi mumkin. Sheriklik bitimi sheriklikni avvalida yoki o'rtasida hamda sheriklik bitimi tamomiga yetgandan so'ng ham yuzaga kelishi mumkin.

Majburiy sheriklikda sheriklarni hech qanday tanlashlik imkoniyati bo'lmaydi. Bunday ko'rinishlar tabiiy yoki to'stdan amalga oshishi mumkin. To'satdan yuzaga kelgan sheriklik aralashib ketishlik natijasida ro'yobga keladi. Bunga ajratib bo'lmaydigan bir xil navli bug'doyni bir-biriga aralashib ketishi yoki ajratib olish qiyinchilik tug'diradigan bug'doy va arpani aralashib ketishi kiradi.

Ulamolar qasddan aralashtirib yuborilgan holatga quyidagi fikrni bildirishgan: Ibn Obidin: "Aralashtirib yuborgan shaxs ularni barchasiga egalik qiladi. Aralashib ketgan qismini egasiga xuddi o'shanday miqdorni to'lab beradi. Ushbu o'rinda hech qanday sheriklik yo'q" -deydi⁷⁵.

MANBALAR:

1. Doktor Abdulaziz Muhammad Xalaf. "Juhudud Doktor Nuriddin Itr fi xidma as-sunnatin Nabaviyya" mavzusidagi ilmiy ishi. – Turkiya, 2007. -53 b.

⁷⁴ Abdulhay Laknaviy. Umda ar-Rivoya. – Qohira: Dor al-Hadis. – J. 3. B. 487.

⁷⁵ Alloma Muhammad Amin ibn Umar ibn Abdulaziz Obidin ad-Damashqiy. Radd al-muhtor ala ad-durr al-muxtor. – Bayrut: Dor ihya at-tiros al-arabiy.1998. – J. 3. – B. 345.

2. Dabusiyy. Taqvimul adilla. – Bayrut: Dor al-kutub, 2004. – B. 202. Maxmud Shaltut. «Al Islom aqiydatan va shariy’atan», Dorush shuruk. Koxira, 1968.
3. Mahmud ibn sulaymon Hanafiy. Kitabul a’lamul axyor min fuqahai mazhubin no’manil muxtar. .(J.2. B.270 530 b.)
4. Badriddin Abu Muhammad Mahmud ibn Ahmad al-Ayniy. Umda al-Qori sharh Sahih al-Buxoriy. Dor al-fikr. Bayrut 2005.
5. Ali ibn Sulton Muhammad al-Qori. Fath bob al-inoya bi-sharh an-nuqoya. Shirka dor al-Arqam ibn Abi Arqam. Bayrut 1997.
6. Mahmud ibn Sulaymon Hanafiy.Kitabul a’lamul axyor min fuqahai mazhubin no’manil muxtar.J.2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. -B.270.
7. Juzjoniy A. Sh. Islom huquqshunosligi. Toshkent. 2002.
8. Maqsudxo’ja ibn Mansurxo’ja. Majma’ al-maqsud yoki Muxtasar al-viqoyaning o’zbekcha sharhi. Adolat. Toshkent – 2005.